



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА  
ИНСТИТУТИ

“МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ВА  
МИЛЛАТЛАРАРО ДЎСТЛИК, ҚАРДОшлиКНИ  
КУЧАЙТИРИШДА АДАБИЁТНИНГ  
ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ”

МАВЗУИДАГИ РЕСПУБЛИКА  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ

Тошкент – 2019

## **„HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI UCHINCHI NA’TNING BADIY TALQINI**

**M.Turdiyeva QarDU magistranti**

Alisher Navoiy „Hayrat ul-abror” dostonida Muhammad payg‘ambarimizga beshta na’t bag‘ishlaydi. Na’tlarning har biri ma’lum bir g‘oyaviy maqsadga qaratilgan bo‘lib, ular payg‘ambarimizning tavsif etuvchi tomonlarini ko‘rsatadi. Misol uchun shoir birinchi na’tda dastlab Oллоh Odam Ato va Momo Havvoni yaratganligi undan so‘ng, boshqa odamlarning tarqalganligi, keyin esa Muhammad payg‘ambarning dunyoga kelganligi, barcha axloqiy fazilatlar u zotda mavjudligini ta’kidlaydi. Shoir fikrini davom ettirar ekan, Muhammad Oллоhning do‘sti – Habibulloh darajasiga ko‘tarilganligini, qolaversa, onadan bir oftob misoli tug‘ilganligini tasvirlaydi:

*...Emdiki raf’ etti yuzidin niqob,*

*Tug’madi andoq yana bir oftob.*

*G’am tunini nur sirisht ayladi,*

*Yer yuznini bog’i behisht ayladi. (35-bet)*

Shoir Muhammadning Makkada Quraysh qabilasida tug‘ilganligidan, uning qirq yoshiga qadar bo‘lgan axloqiy qiyofasi – xislatlarini badiiy aks ettirishni ifodalasa, to‘rtinchi va beshinchi na’tlarda ham ma’lum tomonlariga e’tibor qaratadi. Payg‘ambarimiz bilan bog‘liq ilohiy jarayonlar tasvirini badiiylashtiradi. Biz esa nazariy qarashlarimizni uchinchi na’tda payg‘ambarimizning payg‘ambarlik darajasiga erishgandan so‘ng, o‘z fikri va ta’sirini ommaga o‘tkazganligi, islom dinini o‘rnata boshlagan holatlarini shoir tomonidan tasvirlanish jarayonlariga e’tiborni qaratamiz. Na’tning birinchi bayti:

*Ey sharaf avjida yuzung sham’i mehr*

*Soyadek ul sham’g’a niliy sipehr. (37-bet)*

Bu baytni o‘z ma’nosida qabul qilsak, payg‘ambarimizning yuzlari quyosh shami-ga, osmonning ko‘kligi esa unga soya ekanligiga o‘xshatilyapti. Quyoshning osmondan yuqorida ekanligi haqidagi o‘rta asrlardagi tasavvurlarga asoslanilsa, yuqorida – sharaf ko‘kida (osmonida) bo‘lgan bu nurga undan quyidagi osmonning ko‘kligi unga soya kabidir, ya’ni osmonning ko‘k rangdaligi uning asl xususiyati emas, balki bu quyoshning soyasi ekanligidir degan ma’no chiqadi. Lekin *Sharaf* so‘ziga diqqat qaratsak, bu baytning asl ma’nosi anglashiladi. Sharaf ko‘ki bu osmon emas, balki rasuli akram sharaflanayotgan martabadir.

*Mehrki chehrangdin anga nurdur,*

*Tegrasidin soyasi mahjurdur. (38-bet)*

Baytda Mehr – Quyoshga aslida sening chehrangdan nur taraladi, undagi taftga, nurga sen sababsan, deyilmoqda. Sening chehrangdan quyoshga taralayotgan nurning qudratidan quyosh atrofidagi soyasi unga yaqin kelolmay, ajralib yuradi, deya astronomik nazariya – Quyosh planetasi atrofidagi sfera (qobiq) ning undan ancha uzoqlikdaligi haqidagi ilmiy fakt shoir tomonidan poetik idrok etilib, buning sababi ham uning badiiy niyatiga asoslanib dalillanayapti: „... *tegrasidin soyasi mahjurdir...*”

*Soya agar bo‘lmadi shaxsingga yor,*

*Soyai qadringda durur har ne bor. (38-bet)*

Tangri Muhammad s.a.v.ga boshqa payg‘ambarlariga berilmagan o‘n xususiyatni ato etdi. Bularning o‘ninchisi payg‘ambarimizning ko‘lakalari – soyalari yo‘qligi edi. Garchi shaxsining soyasi bo‘lmasa-da, uning qadri soyasidan kim nima ezgulik qidirsas, bor, topiladi. Shoir uning yer soyasi bilan birlashmaganini u zotning oliynasab javhardan bo‘lgani bilan dalillaydi:

*Shamingga chun nuri qidam soyadur,*

*Nurdur ulkim, anga hamsoyadur. (38-bet)*

Nur, soya so‘zlari baytning ikki misrasida ham qo‘llanilib, ishtiyoq bo‘lgani holda, ayni baytning o‘zida tanosubni ham shakllantirgan.

Muhammad s.a.v.ning unga dastlabki vahiyalar kelganda uning savodi bo‘lmagani, Jabroil alayhissalomning uning yonlariga bir necha marta kelib, „iqra!” ya‘ni „o‘qi!” deganda, o‘qishni bilmasligini aytgani haqidagi voqeadan Navoiy shunday badiiy asos yaratadi:

*O‘pmadi ilgingni chu nolon qalam,*

*Motamiy aylabtur oni bu alam. (39-bet)*

Sening savoding yo‘qligi uchun sen emas, yig‘lab turib qo‘lingni tutmagani uchun qalam aybdor. Mana shuning uchun u bir umr azador bo‘lib qoldi. Qalamning qoraligi ayni shu holat bilan sabablanadi, izohlanadi. Yana yuzi qora bu qalamning yoqasi ham chok:

*Kim yuzin aylab qaro g‘amnok erur,*

*Shaqqi emaskim, yoqasi chok erur. (39-bet)*

Oddiy hayotiy misolki, g‘am-tashvishda qolgan odamning yuragi kuyib, havo yetishmay bo‘g‘ilib ketaveradi, natijada yoqasini yirtib yig‘laydi. Ayni shu holatning qalamga nisbatan qo‘llanilishi, uchi chiqarilgan qalamning „bo‘yin“ qismi chok qilingan yoqaga o‘xshashi mos kelgan. Navoiy fikricha, (albatta, bu badiiy mubolag‘aviy tasvir) payg‘ambarimizning o‘sha paytda savodi bo‘lmaganining sababi qalamni qo‘liga

olmaganida, qalamni qo‘liga olmaganining sababi esa bu qalam ko‘p taqdirlarni qora qilganida edi. Qalam orqali ko‘p taqdirlarning qora bo‘lganligi kabi holatlar hamma zamonlar, hamma saltanatlar, mamlakatlar uchun ham xosdir. Ayniqsa, ko‘plab adolatsizliklar osongina sodir etilgan, ularning ko‘pchiligida haqsizlikni mahv etishga imkon topilmagan Navoiy zamonida ham shunday edi. Xususan, tarixiy voqea bo‘lgan Mo‘min Mirzo voqeasida ham Navoiy attingda qolgan edi. Ma’sum Mo‘min Mirzoning, agar shunday bilimi, Alisher Navoiydan olgan tarbiyasi, kamoloti bilan taxtga chiqqanida Movarounnahr va Xuroson xalqi taqdiri qora bo‘lib, Shayboniyxon zulmi ostida ezilmasmidi? Mazkur baytda Navoiy ayni shu voqeani eslab, yuragi o‘rtanib, shu misralarni tizgan bo‘lsa ajabmas. Bunday holatlar insoniyat yaratilibdiki, u bilan, uning nafsida yashaydigan shayton qutqulari orqali mavjuddir. Ma’lumki, Muhammad s.a.v. islom dinini tadbiq etgunga qadar bo‘lgan davr arablarda johiliya davri edi. Jaholat bu davrda o‘zining yuqori darajasiga chiqqan edi. Ayni tarixiy vaziyat jaholatni mahv etadigan ma’rifatni, mukammal dinni, komil payg‘ambarni talab etar edi. Ana shunday o‘zlarining johilligini ham anglay olmagan baxti qoralarning himoyachisi oxirzamon payg‘ambari bo‘lib kelgan edi payg‘ambarimiz. Zero, payg‘ambarlik – dunyo ishlarini diniy nizomga solmoq, inson ma’naviy, aqliy, ruhiy va axloqiy hayotidagi buzg‘unliklarni tuzatmoqdir<sup>1</sup>.

*Noma qaro qilg‘ali bo‘ldik sare’*

*Nomasiyahlarg‘achi sen-sen shafe’.*

*Barcha milalg‘a chu yurib himmating,*

*„Lom’’ ila „te’’dan lat urib millating.(39-bet)*

Barcha xalqlar uchun sening himmating birdek, zero Olloh butun bashariyat uchun bir-u bor bo‘lgani sababli uning rasuli ham butun insoniyat uchun daxldordir. Qayerdagi Tangri taolo nomi tilga olinsa, u bilan birga payg‘ambarimizning ismlari ham aytiladi, albatta. Xususan, „Ashhadu alla ilaha illalloh va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuluh’’ kalimayi shahodati bunga misol.

*Kufr boshin ke sting etib qahr fosh,*

*Boshig‘a far qolmadi, jismga bosh. (39-bet)*

Gunohkorning boshini kesgan kabi ko‘plab gunohlarga sabab bo‘lgan tushuncha – kufr so‘zining boshini din qudrati ila „kesding’’, deya kitobat san’atidan foydalanib fikr yuritar ekan, shoir arabcha yozuvdagi **kufr** so‘zidagi fe harfini dumaloq bo‘lgani uchun boshga o‘xshatadi. Kufrdan fe olib tashlansa, buning boshiga far (xursandchilik), jismga boshning o‘zi qolmaydi. Bu esa kufurning ustidan qozonilgan g‘alabadir.

Umuman olganda, dostoning muqaddima qismida keltirilgan uchinchi na'tda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning payg'ambarlik rutbasiga erishib, islom dinini o'rnata boshlagandagi holatlari tasviri badiiy san'atlar yordamida yanada mukammallik kasb etgani bilan alohida ajralib turadi.

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada payg'ambarimizning alohida o'ziga xos xususiyatlari – ularning soylari bo'lmaganliklari haqidagi fikrlar; undan keyin esa ularning tabarruk qo'llari qalam tutmagani (yozishga savodi bo'lmagani) holda uning xatiga Ajamdan to Arabgacha bosh egganlari haqidagi fikrlar Navoiy badiiyati asosida tahlil qilingan.

In this article analyzed by in descriptive of the Navoi, our prophet's own peculiarity – he had not became his a shade, then Muhammad s.a.v. didn't know to write, but depended from the people of Ajam to the Arab to him.

### **Kalit so'zlar (Key words):**

Payg'ambar – prophet      Soya – shade

Nur – light      Vahiy – command

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Yettinchi tom.– T: Fan. 1991.
2. Qisasi Rabg'uziy. Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy. 2-kitob. Toshkent. 1991.

---

<sup>i</sup> Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. Toshkent : „Fan“. – 2009.